



**TOSHKENT VILOYATINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2019 yil yanvar-mart)

Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3 267,4 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 %ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 379,3 mlrd. so`mni (o`shish sur`ati 11,5 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 2 888,1 mlrd. so`mni (o`shish sur`ati 3,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 303,3 mlrd. so`mni (o`shish sur`ati 2,1 %) tashkil etdi.


**Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)**


2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`shish sur`atlari Bekobod shahri, Chinoz tumani, Olmaliq va Ohangaron shaharlarida qayd etildi.

Jami viloyat Chakana savdo aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,5 %ga o'sdi va 379,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,6 % ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2 888,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,0 %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,4 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


**2018 yil
yanvar-mart**



**2019 yil
yanvar-mart**



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko`ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Nurafshon shahri (99,5 %), Oqqo`rg`on tumani (98,4 %), Quyichirchiq tumani (98,1 %), Bekobod tumani (97,8 %), Yangiyo`l shahri (96,0 %), Bo`ka tumani (95,5 %), Parkent tumani (95,5 %), Zangiota tumani (95,3 %), Piskent tumani (94,6 %) va Yangiyo`l tumani (93,8 %) yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chinoz tumani (39,6 %), Bekobod shahri (27,0 %), Toshkent tumani (24,1 %), O`rtachirchiq tumani (19,3 %), Yuqorichirchiq tumani (19,1 %), Olmaliq shahri (16,1 %), Chirchiq shahri (15,8 %), Ohangaron shahri (10,2 %) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	379 305,8	111,5	2 888 127,0	103,0
Nurafshon sh.	312,8	15,7	61 909,8	102,9
Olmaliq sh.	49 930,2	161,0	259 797,1	100,0
Angren sh.	11 414,8	103,4	161 346,7	101,6
Bekobod sh.	49 933,9	236,9	135 185,3	94,4
Ohangaron sh.	12 079,2	88,2	67 322,3	102,8
Chirchiq sh.	30 102,3	108,0	160 745,2	106,1
Yangiyo`l sh.	7 146,8	87,7	173 324,2	101,5
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo`rg`on	2 134,6	80,4	129 876,0	101,4
Ohangaron	2 268,7	210,6	30 354,0	104,2
Bekobod	1 725,9	125,5	76 250,1	100,9
Bo`stonliq	9 054,9	71,3	132 342,8	104,2
Bo`ka	4 713,3	79,6	100 571,5	101,3
Quyichirchiq	1 136,8	106,2	58 371,6	103,3
Zangiota	23 167,0	92,0	467 121,2	104,4
Yuqorichirchiq	24 324,4	57,7	102 852,7	122,9
Qibray	21 789,0	72,6	196 652,1	109,2
Parkent	5 648,3	127,7	120 266,2	102,0
Piskent	3 772,9	109,8	65 803,4	101,7
O`rtachirchiq	10 956,4	92,0	45 843,9	102,2
Chinoz	55 749,7	135,3	85 026,8	100,3
Yangiyo`l	7 731,7	147,6	117 764,8	100,5
Toshkent	44 212,3	119,9	139 399,3	101,1


Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)


2019 yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1 125,6 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-mart oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida o`sish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkilar Yangiyo`l shahri (3 023,0 ming.so`m), Zangiota tumani (2 513,0 ming. so`m) va Olmaliq shahri (2 395,4 ming.so`m) hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Ohangaron tumani (345,6 ming.so`m), O`rtachirchiq tumani (386,4 ming.so`m) va Bekobod (502,7 ming so`m) tumanida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	1 125,6	102,6
Nurafshon sh.	1 288,3	98,8
Olmaliq sh.	2 395,4	105,1
Angren sh.	928,3	100,5
Bekobod sh.	1 961,0	111,3
Ohangaron sh.	2 146,0	98,9
Chirchiq sh.	1 224,2	105,5
Yangiyo`l sh.	3 023,0	100,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo`rg`on	1 275,5	99,6
Ohangaron	345,6	106,6
Bekobod	502,7	99,8
Bo`stonliq	844,7	100,1
Bo`ka	849,8	98,4
Quyichirchiq	559,3	102,0
Zangiota	2 513,0	102,7
Yuqorichirchiq	954,8	99,6
Qibray	1 103,8	102,7
Parkent	826,8	101,1
Piskent	700,0	100,8
O`rtachirchiq	386,4	98,4
Chinoz	1 068,9	110,1
Yangiyo`l	606,6	100,9
Toshkent	1 032,1	103,7

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi



Jumladan, 2019 yilning yanvar-mart oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,2 %ni tashkil etib, 104,6 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 6,7 % oshgan. Bunda jami savdo aylanmasining 77,1 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**TOSHKENT VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2019 yil yanvar-mart)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 502,4 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 1,3 %ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, 894,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,1 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 59,5 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkichni tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, O'rtachirchiq tumanida (99,2%), Chinoz tumanida (91,2%) va Qibray (82,5%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarining
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub'ektlari aylanmasining ulushi 40,5% ni tashkil etdi, kichik korxonalarining ulushi katta bo'lgan Ohangaron shahar (100,0%), Bo'ka tumani (99,9%) va Angren (99,9%) shahrida kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	1 502,4	98,7	894,0	95,9	608,4	103,0
Nurafshon sh.	16,3	100,7	0,02	90,3	16,2	100,7
Olmaliq sh.	20,4	99,1	7,2	94,1	13,3	102,1
Angren sh.	11,0	101,7	0,01	18,6	11,0	102,2
Bekobod sh.	16,1	101,7	0,04	10,0	16,1	104,4
Ohangaron sh.	13,3	101,2	0,0	-	13,3	101,2
Chirchiq sh.	59,4	104,8	1,0	53,3	58,4	106,6
Yangiyo`l sh.	6,5	112,2	0,4	912,4	6,1	105,9
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo`rg`on	1,1	98,3	0,005	15,8	1,1	100,6
Ohangaron	0,2	124,4	0,2	136,7	0,1	103,6
Bekobod	15,0	106,4	10,1	109,6	4,9	100,6
Bo`stonliq	20,6	92,5	0,1	5,7	20,4	102,1
Bo`ka	26,9	102,1	0,02	97,7	26,9	102,1
Quyichirchiq	7,3	100,2	0,03	53,6	7,2	100,6
Zangiota	249,4	102,7	0,7	44,0	248,7	103,0
Yuqorichirchiq	30,3	130,1	7,3	1577,6	23,0	100,9
Qibray	354,3	89,7	292,4	87,4	61,9	102,6
Parkent	11,0	110,7	0,7	1397,0	10,4	104,7
Piskent	4,3	100,0	0,02	25,7	4,3	101,4
O`rtachirchiq	480,4	127,5	476,4	127,8	3,9	102,5
Chinoz	102,3	49,9	93,3	47,6	9,0	101,7
Yangiyo`l	22,7	102,7	0,1	50,5	22,6	103,0
Toshkent	33,5	101,4	4,1	93,1	29,5	102,6

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o`sish sur`ati Chinoz (49,9 %) tumanida qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo`limi
Tel.:71-230-86-59**